



AQLIY RIVOJLANISHDA NUQSONI BO'LGAN KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI NOMODDIY MADANIY MEROS VOSITALARI BILAN O'QITISHNING SAMARADORLIGI

Mamatov Mashrab Norbek o'g'li¹, O'Toshmatov²

¹O'zbekiston davlat San'at va madaniyat

instituti cholg'u ijrochiligi

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

²Ilmiy rahbar: prof.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6528919>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

KALIT SO'ZLAR

nomoddiy madaniy meros, shaxs, sensor qobilyat, aqliy rivojlanish, ijtimoiy-pedagogik yordam.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni nomoddiy madaniy meros namunalarini bilan o'qitish hamda natijada aqliy rivojlanishini yaxshi tomonga yo'naltirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, nomoddiy madaniy meros namunalarini bolaning aqliy va ruhiy rivojlanishga ta'siri izohlangan.

Bugungi kunda oilada kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ekologik vaziyatning salbiy ta'siri va boshqa ko'plab mana shunday omillar yosh avlod tarkibida jismoniy, nevrologik hamda ruhiy rivojlanishi ortda qolayotgan bolalar toifasining shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Oilada asosiy e'tiborning moddiy boyliklarga qaratilishi va natijada sog'lom tug'ilgan aksariyat bolalar orttirilgan ruhiy-nevrologik kasalliklarga chalinish holatlari ham kuzatilmoqda. Bunday bolalarning yuqoridagi patologiyalardan biriga chalingani dastlab maktabgacha ta'lim muassasalarida aniqlanadi. Bunda bolaning bolalar jamiyatiga qo'shilib keta olish yoki olmasligi, ruhiy jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega emasligi va dunyoqarash shakllanishining me'yorda yoki aksincha ekanligiga e'tibor qaratiladi.

Bolaning idroki hayotining dastlabki yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki

yoshida u buyumlarning rangi, shakli, katta-kichikligiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi. Unda xilma-xil sensor qobilyatlar: ko'rish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariga qarab ajratish, ko'zi ko'rayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobilyati rivojlanib boradi. Sensor qobilyatning o'z vaqtida rivojlanishi bolalarning aqliy rivojlanishi uchun zamin sanaladi. Jumladan, xotira, qiziqish va boshqa ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Mana shunday qobilyatlarning yuzaga chiqishi aynan maktabgacha ta'lim bosqichida yuz beradi.

Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilgandan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy nuqsonlarga olib kelishi mumkin. Bola rivojlanishidagi turli xil kamchiliklar noqulay muhit, noto'g'ri



ta'lim-tarbiya jarayonida ham paydo bo'lishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, ta'lim jarayonida bolaga noto'g'ri yondashuv va boshqa ko'pgina sabablar bola rivojlanishiga noto'g'ri ta'sir ko'rsatib unda anomal holatning boshlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aqliy rivojlanishning yuzaga chiqishi bolaning maktabgacha ta'lim muassasasidagi holatida ko'riladi. Bolaning tortinchoqligi, topshiriqlarni sekin o'zlashtirishi va boshqa shu kabi xususiyatlari uni anomal bola toifasiga kiritishga asos bo'la olmaydi. Bunday jarayonda tarbiyachi sinchkovlik bilan yondashishi talab etiladi. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar kuchli nevrologik kasalliklarga yoki orttirilgan aqliy zayiflikka chalingan bo'lishadi. Bu odatda kuchli jizzakilik, jazavaga tushish holatlarida namoyon bo'ladi. Bunday bolalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish tizimida birinchi o'rin individual kamchiliklarni bartaraf etish emas, balki bolaning kattalar rahbarligi ostida uning sa'y-harakatlarini buzilishlarni to'g'ri yo'naltirishga qodir bo'lgan yaxlit shaxsni shakllantirish, rivojlantirish va ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli kirish uchun uning imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdir.

Nomoddiy madaniy meros shaxsning ichki dunyosini shakllanishiga ta'sir etuvchi samarali vositalardan ekanligi umume'tirof etilgan. Qadim zamonlardan boshlab faylasuflarning ko'p avlodlari (Aristotel, Aristoksen, Geraklit, Demokrit, Sokrat, Platon va boshqalar) shaxsni ma'naviy boyitishning asosiy shakli sifatida nomoddiy madaniy merosga e'tibor qaratgan. Estetik-badiiy tarbiya muammolari bo'yicha qimmatli natijalar o'sha davr olimlari va rassomlarining keyingi asarlarida ham berilgan.

Musiqqa, adabiyot, rassomlik va san'atning boshqa turlari insonning ma'naviy hayotini har tomonlama va to'liq qamrab oladi. Natijada, insonning his-tuyg'ulari va fikrlariga ta'sir qilish, nomoddiy madaniy meros bilan muloqot qilish orqali bolani tarbiyalash va shakllantirishni ta'minlaydi. Nomoddiy madaniy meros namunalari insonning kayfiyati va ruhiy holatiga hissiy ta'sir ko'rsatadigan eng yorqin san'at turlaridan hisoblanadi. Nomoddiy madaniy meros bilan bolaning his-tuyg'ularini, tasavvurlarini, fantaziylarini uyg'otadigan, shuningdek, uning fiziologiyasi, ruhiyati, dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik manbadir. Nomoddiy madaniy meros shaxsning his-tuyg'ulari, madaniyati, axloqiy munosabatlari va estetik ko'rsatmalarini tarbiyalaydi; ijodkorlikni rivojlantiradi; aqliy qobiliyatlarni faollashtirishga, idrok, xotira, fikrlash, e'tibor jarayonlarining sifat jihatidan o'zgarishiga hissa qo'shadi, aqliy zaifligi bo'lgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun juda zarur bo'lgan o'zini o'zi bilish va o'zini namoyon qilishni rag'batlantiradi. Shuning uchun ham nomoddiy madaniy merosdan ta'lim jarayonida foydalanish yaxshi natijalar beradi.

Aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarga nomoddiy madaniy merosning ijobiy ta'sirlarini quyida ko'rib chiqamiz:

Estetik tarbiya uchun eng qulay davr boshlang'ich ta'lim yoshi ekanligi bugungi kunda jahon ta'lim tizimida ilmiy-amaliy isbotini topgan. Ta'kidlash joizki, XX – XXI asr boshlaridagi musiqashunoslar va musiqa pedagogikasi musiqiy idrok, musiqiy qobiliyat, musiqiy tafakkur, xotira, tasavvur, harakatlarni muvofiqlashtirish va boshqalarni rivojlantirishga asoslangan



musiqiy faoliyat jarayonlarini pedagogik tashkil etish orqali musiqani tushunishda jiddiy ilmiy-nazariy tajribalar olib borildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining amaliy ish tajribasini tahlil qilish orqali aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan kichik yoshdagi bolalarni nomoddiy madaniy meros vositalari bilan o'qitish samaradorligini ta'minlaydigan psixologik-pedagogik sharoitlardan samarali foydalanilayotganiga guvoh bo'ldi. Maktabgacha ta'lim dasturlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida aqli zaif kichik yoshdagi bolalarning hissiy-irodaviy holati, kognitiv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada hisobga olinmaydi. Shu munosabat bilan, darslarda aqli zaif bolalarning tarbiyasi va aqliy rivojlantiruvchi ta'sirni takomillashtirish, nomoddiy madaniy merosga faol emotsional-baholovchi munosabatda bo'lgan shaxsni shakllantirish masalalari hal etilmayotgani ma'lum bo'ldi. Ammo shunday maktabgacha ta'lim muassasalari ham borki, unda nomoddiy madaniy merosdan aqliy rivojlanishda nuqsoni bor bolalar ta'limi va tarbiyasini shakllantirishda asosiy vosita sifatida foydalaniladi.

Bunda, asosan, nomoddiy madaniy merosning asosiy tarkibiy qismi sanalgan musiqadan unumli foydalaniladi. Musiqa aqliy rivojlanishi kechikkan bolalarning qobiliyatlari va ehtiyojlari, cholg'u musiqasini o'rganish, musiqiy ifoda vositalarini, uning shakllari va mazmunini tahlil qilish; turli xil musiqiy faoliyat turlarini faol joriy etish va amaliyotda qo'llash: bolalar musiqa asboblarini chalish; logarifmik tuzilishni anglash; musiqa darslarida musiqiy-ritmik

mashqlardan foydalanish, harakatlarni muvofiqlashtirishdan iborat. Shunday qilib, sinflarda yosh avlodga musiqiy ta'lim berishning obyektiv zarurati va uni umumta'lim maktabining amaliy faoliyatida qo'llashning rivojlanmagan mazmuni, shakllari va usullari o'rtasida aniq ziddiyat aniqlandi; hayotning yangi talablari va hozirgi ta'lim va tarbiya tizimi yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ana shunday yondashuvlardan biri nomoddiy madaniy meros orqali ta'lim jarayonida bolada kechayotgan ruhiy-jismoniy o'zgarishlarni aniqlashda foydalanishdir.

Bolaning jamiyatga kirib kelishi maktabgacha ta'lim jarayonidan boshlanib, bu bosqichda u individuallik, erkinlik, shaxsiy yondashuv va boshqa bir qator qobiliyatlarni rivojlantirib boradi. Ushbu bosqichda boladagi ma'lum xususiyatlar bilan birga ayrim kamchiliklar ham yuzaga chiqadi. Masalan, diqqatning qochuvchanligi, xotiraning sustligi, jizzakilik yoki me'yoridan ortiq e'tiborsizlik va boshqa shu kabi oilada aniqlanmagan holatlar ayni maktabgacha ta'lim jarayonida aniqlanadi. Bunda, albatta, tarbiyachining har bir boladagi holat va o'zgarishlarni kuzatib borishi katta ahamiyatga ega. Boladagi ayni shu kamchiliklar agar vaqtida aniqlanib bartaraf etilmasa, keyinchalik aqliy rivojlanishdan ortda qolishga olib kelishi ham mumkin. Ayni shu holatlarni oldini olish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimida mana shunday bolalar bilan nomoddiy madaniy meros vositalari orqali ishlash va bu orqali boladagi yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklarni ijobiy xususiyatlarga aylantirishga erish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'Toshmatov., M.Jo'ray ev., R.Abdullayev., Sh.Yoldashov. Nomoddiy madaniy meros. T.: 2013.
2. N.Ismoilova., D.Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. T.: 2013.
3. Тишина Екатерина Юревна. Содержание формы и методы музыкального воспитания младших школьников с задержкой психического развития. Кандидата педагогических наук. Москва-2008.